YOPIQ BOSH MIYA SHIKASTLARINING SUD-TIBBIY TAHLILI

Jumaniyozov Erkin Xudayberganovich – t.f.n., dotsent
Razzaqov Rahmatjon Baxtiyor o‘g‘li – bakalavr
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida tan jarohatlarining og‘irlik darajasini aniqlashda ko‘pincha kasallik davomiyligi nazariyasidan foydalaniladi. Hayot uchun xavf omili sog‘liq uchun jiddiy zarar, og‘ir bosh miya jarohati yoki kuchli stress natijasi sifatida baholanadi.Xususan, miya chayqalishi kabi jarohatlar odatda yengil tan jarohati sifatida baholanadi, chunki ular qisqa muddat ichida sog‘liqning yomonlashuviga olib keladi. Bosh miya shikastlanishi va kuchli stress esa o‘rta yoki og‘ir darajadagi tan jarohatlari sifatida baholanadi.Shuni ta’kidlash lozimki, og‘ir tan jarohatlarining deyarli yarmi yo‘l-transport hodisalari natijasida yuzaga keladi. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, yopiq bosh miya jarohatlarida og‘irlik darajasini ilmiy asosda to‘g‘ri aniqlash sud-tibbiy ekspertiza sifatini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *sud tibbiy ekspertiza, mexanik jarohatlar, yopiq jarohatlar, turli bosh miya jarohatlari.*

СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКИЙ АНАЛИЗ ЗАКРЫТЫХ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВЫХ ТРАВМ

Жуманиязов Эркин Худайберганович – к.м.н., доцент
Раззаков Рахматжон Бахтиёр угли – бакалавр
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: *Одним из комплексных направлений научных исследований биологических выделений в судебно-медицинской экспертизе вещественных доказательств является разработка новых методов исследования объектов и углубленное изучение существующих методов, способствующих идентификации личности. Согласно результатам исследований, если в одной слюнной железе трупа обнаруживаются агглютинины, то они выявляются и в других железах, однако их активность различается. Следует отметить, что исследование экстрактов, полученных из слюнных желез (околоушной, поднижнечелюстной и подъязычной), позволяет выявить агглютинины. На основании этого можно сделать вывод, что агглютинины слюны вырабатываются непосредственно в самих слюнных железах. В 74,7% случаев агглютинины выявляются как в сыворотке крови, так и в слюнных железах. В 25,3% случаев агглютинины обнаруживаются только в сыворотке крови и отсутствуют в слюнных железах. Данные показатели свидетельствуют о том, что 74,7% лиц относятся к группе «секреторов» агглютининов (anti-A и anti-B), а 25,3% — к группе «несекреторов», что имеет важное значение для идентификации личности.*

Ключевые слова: *судебно-медицинская экспертиза, механические повреждения, закрытые повреждения, различные черепно-мозговые травмы.*

FORENSIC MEDICAL ANALYSIS OF CLOSED TRAUMATIC BRAIN INJURIES

Jumaniyozov Erkin Khudayberganovich – Ph.D., associate professor
Razzakov Rahmatjon Bakhtiyor ugli – bachelor student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *One of the comprehensive areas of scientific research involving biological secretions in the forensic medical examination of physical evidence is the development of new methods for examining biological materials and the in-depth study of existing methods that contribute to personal identification. According to the study results, if agglutinins are detected in one salivary gland of a corpse, they are also found in other glands, although their activity varies. It should be noted that the examination of extracts obtained from the salivary glands (parotid, submandibular, and sublingual) allows for the detection of agglutinins. It can therefore be concluded that salivary agglutinins are produced directly within the salivary glands. In 74.7% of cases, agglutinins are detected both in blood serum and in salivary glands. In 25.3% of cases, agglutinins are found in blood serum but not in salivary glands. These findings indicate that 74.7% of individuals are “secretors” of agglutinins (anti-A and anti-B), while 25.3% are “non-secretors,” which is crucial for forensic personal identification.*

Key words: *forensic medical examination, mechanical injuries, closed injuries, various traumatic brain injuries.*

Dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonunida inson manfaatlari, uning huquq va qadriyatlarini muhofaza qilishga qaratilgan, qonunchiligimizda qayd etilgan bir qator farmoyishlarni, konstitutsion kafolat darajasiga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Odil sudlov organlari faoliyatida Bosh miya yopiq jarohatlarining turli xil shikastlanishlari ekspertizalarida, ekspert tomonidan amaliy va ilmiy nuqtayi jihatidan bunday turdagi jarohatlanishlarning og‘irlik darajalarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu turdagi ekspertizalarda O‘z.R.SSV “01” iyun 2012-yildagi 153-son buyrug‘iga asosan o‘tkazilishi tibbiy va yuridik jihatidan ekspertiza to‘laqonli o‘tkazilganligidan dalolat beradi. Bosh miya yopiq jarohatlarining turli xil shikastlanishlari baxtsiz holatlarda, avtohalokatlarda ham ko‘p uchrashi va ushbu jarohatlarning sud tibbiy jihatidan to‘g‘ri talqin etilishi jinoyatning ochilishi va boshqa holatlardagi aybdor shaxslarga nisbatan haqiqatni talqin etishda huquq tartibot organlari uchun yaqindan yordam beradi. Bosh miya turli shikastlarida aynan klinik shifokorlar tomonidan qo‘llangan shoshilinch tibbiy yordam, o‘tkazilgan laborator-instrumental tekshiruvlar va jarrohlik amaliyotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Klinik shifokorlar tomonidan tibbiy hujjatlardagi, tibbiy jihatidan ekspertizaga moyil ma’lumotlari ekspertiza amaliyotidagi jarohatning mezoniga va shunga asosan jarohat og‘irlik darajasini to‘g‘ri belgilanishida asosiy qo‘llanma hisoblanadi. Shu bois kasbiy nuqtayi nazardan ham bosh miya faoliyatining shikastlari o‘rganilib, to‘g‘ri ilmiy asosli baholanishi, inson hayotida asosiy yo‘l belgilovchi ko‘rsatmalar qatoriga kiradi. Sud tibbiy ekspertiza amaliyotida kalla miya jarohatlari alohida o‘rin tutadi. Ular turli vaziyatlarda olingan va turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Mexanik jarohatlar, hozirgi vaqtda jarohatlar ichida eng ko‘p uchraydigan jarohatlar qatoriga kiradi. Ular ichida ayniqsa, bosh miya jarohatlari ushbu jarohatlarining salmoqli o‘rnini tashkil etadi. Statistik ma’lumotlar bo’yicha dunyoda har yilga bosh miya shikastlari oqibatida 1,5 mln dan ortiq odam vafot etadi, 2,4 mln odam esa nogiron bo‘lib qolgan.

Bosh miya jarohatlari o‘zining klinik kechishi va morfologik ko‘rinishi bilan, shuningdek og‘ir oqibatlari bilan boshqa jarohatlardan ajralib turadi. Sud tibbiy ekspertiza o‘tkazilish jarayonlarida ayblanuvchi, jabrlanuvchi va gumon qiluvchi shaxslardagi aniqlangan bunday jarohatlar biroz qiyinligi sababli sud tibbiy ekspertlar hamda klinik shifokorlar tomonidan bunday tur va ko‘rinishdagi jarohatlarni ya’ni bosh miya jarohatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga qiziqish uyg‘otib, ularni ilmiy asoslab aniq tashxis qo‘yilishini taqozo etadi. Aholi o‘rtasida ayniqsa yoshlar orasida nogironlik va oqibatda o‘lim sabablariga olib keluvchi jarohatlari hisoblanadi. Bunday holatlarda tekshiruv va tergov xodimlari tomonidan tan jarohatini olingan joyi va vaqti, sababi, jarohat yetkazilish mexanizmi, jarohat yetkazilishiga yaratilgan sharoit, yetkazilgan jarohatning ko‘lami, tavsifi, sog‘lik va hayot uchun xavflilik darajalarini o‘rganish va aniqlash juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday keng ko‘lamli savollarga aniqlik kiritish faqat maxsus kasbga ega bo‘lgan mutaxassislar — sud tibbiy ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tekshirish maqsadi: Ishning maqsadi, sud tibbiy ekspert, ekspertiza o‘tkazish jarayonida olingan jarohatga aniqlik kiritish va tergovchi tomonidan hal etilish uchun qo‘yilgan savollarga aniqlik kiritish maqsadida, dastlab tergovchi tomonidan tayinlangan qarorni o‘rganib chiqishi, ekspertiza oldiga hal etilishi uchun qo‘yilgan savollar to‘g‘ri talqin etilganligi inobatga olib, ekspertiza o‘tkazilishini rejasini belgilaydi. Bosh miya yopiq jarohatlarining turli shikastlanishlarini o’rganish sud- tibbiy ekspertlar uchun murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu holatlar barchasi amaldagi qonunchilikga muvofiq sud-tibbiy ekspertiza o’tkazilishiga moyillik hisoblanadi. Bosh miya yopiq jarohatlari yuzasidan sud tibbiy ekspertizada jabrlangan shaxslarning tekshiriluvchi bilan bir qatorda taqdim etilgan tibbiy hujjatlar retrospektiv o‘rganiladi. Ushbu jarayonda ekspertiza oldiga qo‘yilgan masalalarni hal qilishlik borasida ma’lum bir muammolar bo‘lib, ular aksariyat holatlarda keyinchalik ayni shu hodisa yuzasidan qayta sud tibbiy ekspertizalar tayinlanishiga olib keladi. Ekspert, ekspertiza o‘tkazish jarayonida quyidagilarga e’tibor berishi talab etiladi: jabrlanuvchining hujjatiga (pasport yoki uni o‘rnini bosuvchi hujjatlar) ga asosan shaxsiga aniqlik kiritilishi, tekshiruv jabrlanuvchini so‘rab surishtirish ya’ni olgan tan jarohati vaqti, holati va jabrlanuvchining hozirgi sog‘lig‘i haqidagi shikoyatidan boshlanadi. Voqea tafsilotini erkin holatda aytib berishi, unga beriladigan savollar olgan jarohatiga aniqlik kiritilishiga moyil bo‘lishini talab etiladi. Keyin esa jabrlanuvchi tomonidan taqdim etilgan tibbiy hujjatlari asli, undagi yozib ko‘rsatilgan olingan jarohat haqidagi ma’lumotlar mavjudligi o‘rganiladi. Agar jabrlanuvchi tibbiy muassasada davolanayotgan bo‘lsa, uning dastlabki taqdim etgan tibbiy hujjatlari o‘rganiladi. Ammo, sud-tibbiy xulosalari sifat tahlili shuni ko‘rsatadiki, ba’zi ekspertiza o‘tkazilish amaliyotida, qo‘shimcha va qayta sud tibbiy ekspertizalarda bosh miya yopiq jarohatlarining shikastlanishlarini baholashda qisman kamchiliklar uchrab turishi, bu esa ekspertlarni tibbiyotning rivojlangan hozirgi zamon tekshiruv usullaridan foydalangan holda, klinik va morfologik belgilariga asoslanib, bunday ekspertizalarni boshqa patologik kasalliklari

differensial tashxisi asosida taqqoslab yagona metodik ko‘rsatmaga asoslanib, ekspertiza ma’lumotlarini baholashni taqozo etadi.

Tadqiqot usuli: Tahlil etilishi rejalashtirilgan ishda o‘rganilayotgan bosh miya yopiq jarohatlarining turli xil shikastlanishlari klinik va ambulator tekshiruvlarda davolovchi shifokorlar tomonidan klinik-instrumental, neyro-fiziologik va laborator tekshiruvlar asosida to‘g‘ri talqin etilganligi, tibbiy hujjatlar ma’lumotlariga asosan sud tibbiy ekspertlar tomonidan ushbu holatlarda, olingan jarohatlarning og‘irlik darajalarini belgilanishi mezonlar asosida to‘g‘ri baho berilganligini o‘rganish bilan sud tibbiy ekspertiza amaliyotidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat bo‘ldi.

Ko‘rib chiqilgan, tekshiruv usullari va materiallarini 2024-2025-yillarda RSTEIAM Toshkent Shahar STE filialida «Bosh miya yopiq jarohatlari» bo‘yicha o‘tkazilgan tirik shaxslar sud tibbiy ekspertizalariga oid hujjatlar tashkil qiladi. Tahlil qilish natijalariga ko’ra, jami, yuqorida qayd etilgan yillarda ushbu shikastlanishlar bo‘yicha 480 ta tirik shaxslar ekspertizasi o‘tkazilgan bo‘lib, ular barcha tirik shaxslar ekspertizasining 11% ini tashkil etgan. Har bir holatda sud- tibbiy ekspertiza xulosasi bo‘yicha voqea tafsiloti, jabrlanuvchi va shikast yetkazgan shaxs haqida ma’lumotlar, jarohatlarning xususiyatlari atroflicha tahlil qilindi. Statistik ishlov. Olingan tekshiruv natijalari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Jadval №1.

№	Yosh bo’yicha	Soni	Erkak	Ayol
1	1-15	29	21	8
2	16-30	240	187	53
3	31-50	163	131	32
4	51-100	48	35	13
5	Jami:	480	374	106

Tahlil natijalari bo‘yicha jami 480 holatda, jabrlanganlarning yoshi guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, shundan 374 tada (78 %) erkaklarga, 106 ta (22%) ayollarga shikast yetkazilgan. Yosh guruhlari bo‘yicha ko‘pchilikni 16-50 yosh oralig‘idagi shaxslar tashkil etgan. Xususan jami 480 ta holatdan 240 tasini 16-30 yoshdagilar, 163 tasida 31-50 yoshdagilar shikastlangan. 15 yoshdan kichik, 50 dan katta yoshdagilarda kalla miya shikastlanishlari ancha kam (9%) kuzatilgan. Voqea tafsilotlari bo‘yicha 326 holatda tan jarohatlari ko‘chada, 113 holatda uyda yetkazilgan. Transport travmasidan shikastlanish 41 ta holatda kuzatilgan. Ta’kidlash lozimki, uyda olingan shikastlanishlarning 53 holatida ayollarga turmush o‘rtoqlari tomonidan tan jarohatlari yetkazilgan. Transport travmalarining (36 holatda) harakatdagi avtomobillarning, piyodalar bilan to‘qnashuvida kelib chiqqan, 5 ta holatda travmalar avtomobil salonida olingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligini yo‘lovchilar tashkil qilgan. Ko‘chada olingan shikastlanishlarning (74%) notanish shaxslar tomonidan yetkazilgan. Jami kalla miya jarohatlari 316 tasida shikastlanish cheklangan bo‘lib, bosh miya chayqalishi ko‘rinishida kuzatilgan. Qolgan holatlarda (164 ta) shikastlanish qo‘shma tusga ega bo‘lib, bosh miyaning jarohati bilan bir qatorda tananing boshqa sohalarida (qo‘l, oyoq, ko‘z va h.k.) ham aniqlangan.

Jadval №2.

№	Og’irlik darajalari bo’yicha	Soni	% larda	Transportdan shikastlanish	Uy sharoitida shikastlanish	Ko’chada shikastlanish
1	SQMBOK kengligi	316	66	2	56	258
2	O’rtacha	120	25	18	48	54
3	Og’ir	44	9	21	9	14
4	Jami:	480	100	41	113	326

Yuqorida keltirilgan jadvalda biz tahlil qilgan tirik shaxslarda bosh miya shikastlanishlarining og‘irlik darajasi — tan jarohatlari turli xil darajalar bo‘yicha, son jihatidan va holatlar bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatilgan.

Xulosa: Biz olib borgan tahlil va tadqiqot qilish natijalariga ko’ra, yopiq bosh miya shikastlarining sud-tibbiy tahlili shuni ko’rsatadiki, ko’chada olingan tan jarohatlar boshqa holatlardan ko’ra ko’prog’ini tashkil qiladi. Binobarin bu holatlardan asosan bosh miyada lat yeyish, siqilishga xos belgilar bo’lganligini qayd etish lozim. Barcha holatlarda mutaxassis sud-tibbiy ekspertlar jabirlanuvchilar olgan tan jarohatlarning og’irlik darajalari belgilanishi mezonlar, belgilar asosida to’g’ri va ilmiy asoslangan holda baho berilgan.

ADABIYOTLAR

1. Kondakov E.N. Kalla-miya jarohati: ixtisoslashmagan statsionar shifokorlari uchun qo‘llanma. – Maxsus adabiyotlar (Spets.Lit). – 2002.
2. Lixterman L.V. Kalla-miya jarohati // Tibbiyot gazetasi (Meditsinskaya gazeta). – 2003.
3. Nedugov G.V. Subdural gematomalar: monografiya. – Samara. – 2011.
4. Nedugov G.V. Bosh miyaning travmatik siqilishida ikkilamchi ichki ustun qon quyilishlarining ekspertlik bahosi. – Tibbiyotda ekspert (Ekspert v med). – 2007.
5. Toshkent shahar sud-tibbiy ekspertiza byurosining 1-sonli filiali 2024–2025-yillardagi arxiv ma’lumotlari.
6. G‘iyosov Z.A. Kalla-miya jarohati va uning oqibatlarini ekspertlik baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – Toshkent. – 2001.
7. Zograbyan S.G. Kalla-miya jarohati. Tibbiyot (Meditsina). – 2012.